

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

PAXTANI DASTLABKI ISHLASHDA, TOLA TARKIBIDAGI IFLOS ARALASHMALAR MIQDORINING TEXNOLOGIK BOSQICHLAR BO‘YICHA O‘ZGARISHINI TADQIQ ETISH

t.f.n., dots. M. Axmatov,

PhD., kat.o‘qituvchi N. Axmatov,

Izlanuvchi, I. Babanazarov,

talaba A. Ostonov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Аннотация:

Maqolada, paxtani dastlabki ishlash texnologik bosqichlar bo‘yicha tola tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdor o‘zgarishini, tajribalar asosida olingan natijalari keltirilgan.

Аннотация:

В статье представлены изменения количества примесей и пороков на волокна в зависимости от технологических этапов первичной обработки хлопка, полученные на основе экспериментов.

Abstract:

The article presents changes in the amount of impurities and defects in fibers depending on the technological stages of primary processing of cotton, obtained on the basis of experiments

O‘zbekistonda paxta-to‘qimachilik klaster tizimini joriy etilishi natijasida to‘qimachilik mahsulotlarini, ishlab chiqarishda raqobatbardosh sifatli tola yetishtirishda, mavjud texnologik jarayonlarni takomillashtirib borib, mahsulot tannarhini kamaytirishdan iboratdir.

Paxtani dastlabki ishlash korxonalarini uchun innovatsion texnika va texnologiyalarni ishlab chiqish, mavjudlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ushbu sohada, jumladan, paxtani saqlash, quritish, mayda va yirik iflosliklardan tozalash, jinlash hamda tola tozalash uskunalarining ishchi organlarini takomillashtirish, tolaning tabiiy sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qoluvchi resurs tejamkor texnologiyalarni yaratish, mahsulot sifatini nazorat qilish imkoniyati beruvchi texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda[1].



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Mahalliy paxta tozalash korxonalarida paxtaning boshlang'ich ko'rsatkichlariga bog'liq ravishda qayta ishlanayotgan paxtadan sifatli, tabiiylikini saqlagan xolda tola ishlab chiqishni ta'minlash maqsadida paxtani dastlabki ishlashning samarali texnologiyasini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Bunga erishish uchun paxtani dastlabki ishlash korxonalaridagi texnologik jarayonlarida sifatli paxta qabul qilish, saqlash va ishlab chiqarish jarayonlarida paxta mahsulotlarini tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish va uni oshirish bo'yicha ko'plam ilmiy tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan[2,3,4,5,6,7].

Jumladan xorijiy paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, U.S.Department of agriculture, Lummus, USDA Ginning Cotton Research Unit, USDA Agricultural Research Service, Texas Tech University, Samuel Jakson Incorporated (AQSH), Cotton reseach and devolepment corporation (Avstraliya), Central Institute for Research on Cotton Technology, Bajaj Steel Industries Limited (Xindiston) va Cotton Research Institute of Nanjing Agricultural University Lebed (Xitoy) ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar[8].

Paxta tozalash korxonalarida paxta tolasi tarkibidagi iflos aralashmalarning texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarishini o'rganish maqsadida O'zbekiston paxta tozalash korxonasida tajribalar o'tkazildi. Tajribalar Namangan-77, seleksion navli 1-nav 2-sinf va 2-nav 2-sinfga mansub paxtalarda o'tkazildi. Tajribalar o'tkazish uchun g'aram maydonidan, qo'zg'almas perevalkadan so'ng, barabanli quritgichdan so'ng, ketma-ket joylashtirilgan YXK rusumli paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash agregatlaridan so'ng 10 kg dan paxta namunalari ajratib olindi va ajratib olingan paxta namunalirining sifat ko'rsatkichlarining o'zgarishi o'rganib chiqildi. Sifat ko'rsatkichlari o'zgarishini aniqlash uchun, ajratib olingan paxta namunalaridan ДЛ-10 rusumli laboratoriya jinida tolasi ajratib olindi va "Paxtasanoat ilmiy markazi" AJ qoshidagi ilmiy laboratoriyada tahlil qilinib, paxta tolasi tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdorining texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarishi aniqlandi.




Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceSeries.com



Texnologik bosqichlar

1. Nam-77, 1-nav 2-klass
2. Nam-77, 2-nav, 2-klass

1-rasm. Tola tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar

miqdorini texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarish grafigi

1-rasmda Namangan-77 selekson navli 1-nav 2-sinfga mansub paxta tolasida tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdorining texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarish grafigi ko'rsatilgan (1-egri chiziq). Grafikdan ko'rinib turibdiki, g'aram maydonidan olingan paxta namunasidan ajratib olingan paxta tolasida tarkibidagi iflosliklar va nuqsonlar miqdori 4,40 foizni tashkil etgan bo'lsa, qo'zg'almas perevalkadan so'ng 4,28 foizgacha, quritish barabanidan so'ng 4,20 foizgacha, 1-liniya УХК rusumli paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalovchi agregatidan so'ng 2,20 foizgacha, 2-liniya УХК agregatidan so'ng 1,80 foizgacha kamayishi kuzatilgan bo'lsa, 4ДП-130 rusumli tola ajratish uskunasi tolasida ajratib olinib, 1БП rusumli tola tozalash uskunasi tozalangan toladan olingan namuna tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdori 2,78 foizni tashkil etmoqda.

2-egri chiziqda Namangan -77 seleksion navli 2-nav 2-sinfga mansub paxta namunasidan ajratib olingan paxta tolasida iflos aralashmalar va nuqsonlar

Proceedings of International Educators Conference


Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

miqdorining texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarish grafigi ko'rsatilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, g'aram maydonidan olingan paxta namunasidan ajratib olingan tola tarkibidagi iflosliklar va nuqsonlar miqdori 4,70 foizni tashkil etgan bo'lsa, qo'zg'almas perevalkadan so'ng 4,65 foizni, quritish barabanidan so'ng 4,50 foizni, 1-liniya YXK agregatidan so'ng 2,30 foizni va 2-liniya YXK agregatidan so'ng esa 1,86 foizni tashkil etgan bo'lsa, 4ДП-130 rusumli tola ajratish uskunasi paxtadan tolasi ajratib olinib, 1BII rusumli tola tozalash uskunasi tozalangan toladan olingan namuna tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdori 3,07 foizni tashkil etmoqda.



1.Nam-77, 1-nav 2-klass

2.Nam-77, 2-nav, 2-klass

2-rasm. Tola tarkibidagi yirik iflosliklar miqdorini texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarish grafigi.

2-rasmda tola tarkibidagi yirik iflosliklar miqdorini texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarish grafigi ko'rsatilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, g'aram maydonidan olingan paxta namunasidan ajratib olingan paxta tolasi tarkibidagi yirik iflosliklar miqdori 3,28 foizni tashkil etgan bo'lsa, qo'zg'almas perevalkadan so'ng 3,22 foizni, quritish barabanidan so'ng 3,18 foizni, 1-liniya YXK agregatidan so'ng 1,30 foizni, 2- liniya YXK agregatidan so'ng esa 0,80 foizni tashkil etmoqda.

2-egri chiziqni tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagilarning guvohi bo'lamiz: texnologik bosqichlar bo'yicha paxta tolasi tarkibidagi yirik iflosliklar miqdorining 3,44; 3,42; 3,18; 1,30 va 0,80 foizlargacha kamayishi kuzatilmoqda.



Proceedings of International Educators Conference


Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

3-rasmdagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, g‘aram maydonidan olingan paxta namunasidan ajratib olingan paxta tolasi tarkibidagi mayda iflosliklar miqdori 0,78 foizni tashkil etgan bo‘lsa, qo‘zg‘almas perevalkadan so‘ng 0,70 foizgacha, quritish barabanidan so‘ng 0,65 foizgacha, 1-liniya paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalovchi YXK rusumli agregatidan so‘ng 0,30 foizgacha, 2-liniya YXK rusumli agregatidan so‘ng 0,18 foizgacha kamayishi kuzatilmoqda, 4ДП-130 rusumli tola ajratish uskunasi paxtadan ajratib olingan tola tarkibidagi mayda iflosliklar miqdori 0,20 foizni tashkil etmoqda.



1. Nam-77, 1-nav 2-klass

2. Nam-77, 2-nav, 2-klass

3-rasm. Tola tarkibidagi mayda iflosliklar miqdorini texnologik bosqichlar bo‘yicha o‘zgarish grafigi

3-rasmdagi 2-egri chiziqni tahlil qiladigan bo‘lsak, paxta tolasi tarkibidagi mayda iflosliklar miqdori 0,81; 0,76; 0,71; 0,31 va 0,20 foizgacha kamayishi kuzatilmoqda. 4ДП-130 rusumli tola ajratish uskunasi paxtadan ajratib olingan toladagi ifloslik 1БП rusumli tola tozalash uskunasi so‘ng 0,21 foizni tashkil etmoqda.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Xulosa:

Tola tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdorini texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarish grafiklaridan ko'rinib turibdiki:

1.1BII rusumli tola tozalash uskunasida tozalangan toladan olingan namuna tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdori 2,78 foizni tashkil etmoqda.

2.1BII rusumli tola tozalash uskunasida tozalangan toladan olingan namuna tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar miqdori 3,07 foizni tashkil etmoqda.

3.1BII rusumli tola tozalash uskunasidan so'ng esa 0,21 foizni tashkil etmoqda.

Ushbu olingan natijalarni, paxtani qayta ishlash texnologik jarayonida paxta tolasining tabiiylikini saqlash va tola tarkibidagi iflos aralashmalar va nuqsonlar kamaytirish va unda ishtirok etayotgan uskunalarni tanlashda foydalanish uchun tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni.

2.Madumarov I.D. Paxtani issiqlik-namlik holatini muqobillashtirish va bir tekis ta'minlash asosida tozalash jarayonining samaradorligini oshirish // texnika fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent. – 2019, 200 b.

3.Н.М.Ахматов, И.С.Тошкуллов, М.Ахматов, О.З.Косимов, Х.С.Усманов Производственные испытания модернизированного сушильно-очистительного барабана// Международной научно-практической конференции «Научно-практические исследования». ISSN 2541-9528. № 8.3 (23). Декабрь 2019 г. 18-28 Стр. Омск 2019. <http://weeqly.ru> E-mail hello@weeqly.ru.

4.I.Babanazarov, N.Axmatov, I.Madumarov, M.Axmatov Paxtani qayta ishlash texnologik jarayonida tola tarkibidagi iflos aralashmalar miqdorining texnologik bosqichlar bo'yicha o'zgarishini tajribalar asosida aniqlash // Tafakur manzili- 2023-Iyun-1-qism-174-178 betlar.

5.Xakimov SH.SH. Paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash jarayoni samarali texnologiyasini va tozalagichlar ishchi qismlarining rasional konstruksiyasini yaratish //texnika fanlari doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent. – 2016, 225 b.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

6. Ruzmetov M.E. Yopiq omborga paxtani g'aramlash va buzishning samarali resurstejamkor texnologiyasini yaratish //texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent. – 2017, 120 b.

7. Axmatov N.M. Paxtani quritish barabani ichki elementlarini takomillashtirish asosida tozalash samaradorligini oshirish //texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent. – 2023, 120 b.

8. Samuel Jackson Incorporated. www.Samjackson.com.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE
SERIES